



## OMON MUXTOR “MAYDON” ROMANI TAHLILI

Mamatova Iroda

Asrorova Dinara

*Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik davri o'zbek romanlaridan biri Omon Muxtor qalamiga mansub “Maydon” romani tahlil etiladi

**Kirish So‘Zlar:** Omon Muxtor, “Maydon” romani, mustaqillik davri o'zbek adabiyoti, Adib, Osiy, Mulla, Hakim, Bemor, Baxshi, Artist, Ayol, Qizcha, Savdogar, Arbob, Darvesh-masxaraboz.

### KIRISH

Har bir insonni ich-ichida bir bemor-u bir hakim, bir artist-u bir arbob, bir mulla-yu bir osiy, bir qizcha-yu bir ayol baravar yashashi mumkin. Romanda asosiy qahramonlardan biri Adib tilidan “Men bu odamlar bilan ko‘rishishni istamasdim. Zerikarli...Aravani quruq olib qochishadi, lekin birontasi o‘ylamaydi. Hech narsani eslamaydi” deya bir necha bor ta’kidlanadi. Xo’sh, Adib bu odamlar deganda kimlarni nazarda tutdi? Osiy, Mulla, Hakim, Bemor, Baxshi, Artist, Ayol, Qizcha, Savdogar, Arbob, Darvesh-masxarabozlarni. Bu odamlar aslida Adib o‘zi yaratgan qahramonlar edi-ku? Qahramonlarning har biri aslida Adibning qaysidir xarakteri va qaysidir ko‘zga ko‘rinmas qiyofasi edi.

Adib ham aynan shu holatda edi. Asar boshida u o‘z “odamlar”i bilan ko‘rishishni umuman xohlamasdi. Lekin taqdir taqozosi bilan osma-qutida ular bilan yolg‘iz qolib ketdi. Boshida yoqtirmagani bu odamlarning hikoyalari, ruhiy holatlari bilan yaqindan tanishgach, ularni qanday bo‘lsalar borlaricha qabul qilishni boshladi va hatto ularga endi mehr to‘la ko‘zlar bilan qaradi. Axir bu odamlar hammasi Adibning o‘zi edi-da. Inson o‘zini o‘zi qabul qilolmasa, o‘zini tushunmaydi, o‘zini tushunmasa, xatolarini to‘g‘irlay olmaydi va oqibatda u o‘zligini anglay olmaydi. Bu ishlarni o‘zi qilmay qochib yuraversa, o‘rniga kim qiladi axir? Uning nima uchun o‘zini Osiy hisoblashini kim tushunadi, o‘zi tushunmasa? Uning nima uchun Bemor ekanligini kim tushunadi? Uning Hakim bo‘lsa ham birorta bemorni tuzatmaganini o‘zi tan olmasa kim tan oladi? Inson hech qachon xatosini tan olmasa, o‘zgara olmaydi. Qachon biz yolg‘iz qolib o‘zimizni taftish qilganimizda hammasini tan olamiz. Yolg‘iz qolish uchun albatta osma-quti (lift)da qamalib qolishimiz shart emas-ku?

Omon Muxtoring bu romani hajm jihatdan qisqa bo‘lsa ham, insonning ruhiy holatlarini, o‘z-o‘zi bilan ichki kurashlarini tasvirlash jihatidan ancha mukammal yozilgan. Inson psixologiyasida shunday narsalar borki, u o‘zini biror narsada aybdor sanab, o‘zini kechira olmasa unda bloklar paydo bo‘ladi. U blok butun ongostimizga o‘rnashib olib, u boshqa xatti-harakatlarimizni ham boshqaradi. Ya’ni biz u bloklarni yechmas ekanmiz, hech qachon xotirjamlikka, biror yaxshi natijaga erisha olmaymiz. Mana, masalan, roman oxorda Osiyning eng katta bloki yechildi. U o‘scha cho‘kib ketgan qizchani qutqara olmaganligi uchun o‘zini necha yillardan buyon aybdor hisoblab kelardi. Hayotida umuman ma’no yo‘qdek edi, ayoli, egizak qizchalarining ko‘ziga qarashga qo‘rqardi, o‘zini kechira olmasdi. Shuning uchun ham shaharga, oilasidan uzoqqa kelib yashardi. Ammo blok



yechilgan zahoti, ya’ni cho’kib ketgan qizcha aslida o’lmagani, yonginasida yurganini bilgan zahoti soniya ichida u o‘z uyiga qizlarining oldiga shamoldek uchadi.

Asar nima uchun “Maydon” deb nomlanganiga ham e’tibor qaratsak, fikrimiz yana ham oydinlashadi: inson qachon o‘z bloklaridan xalos bo’lsagina (go’yo liftdan o‘zini qutqara olsagina) keng maydon sari, erkinlik, xotirjamlik sari chiqa oladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, asarda bir odamning ichida yana o’nlab odamlar yashashi mumkinligi birgina Adib misolida ko’rsatib berilgan. Bu odamlar soni qanchalik ko‘p bo’lsa inson erkin, xotirjam yashashi qiyinlashishi, ya’ni o‘z “Maydon”iga yeta olmasligi ochib berilgan. Ichimizdagи odamlarni hammasini yaxshi ko’rmasak, ularni tushuna olmasak, ayblariga ko‘z Yuma olmasak bir umr go’yoki “osma-quti”da qolib ketgandek yashayveramiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Omon Muxtor “Maydon” romani
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. - Toshkent. 2004.
3. Yusupova M. Tarixiy shaxs obrazining badiiy talqini.

DOI:<https://doi.org/10.47100/vli2.203>